Buxoroxo — Buxoro xonligini 1753 yildan keyingi nomi; ashtarxoniylar oʻrniga kelgan mangʻitlar sulolasi vakillari





oʻzlarini amir deb atashgan. Shunga koʻra, davlat Buxoro

Amirligi deb atala boshlangan. 1920 yil Buxoro boskini natijasida tugatilgan va Amir Mirshod .[1]

1758-yil Rahimbiy vafotidan soʻng mangʻitlar amirlik taxtiga uning amakisi Miyonkoʻl hokimi Doniyorbiy (1758-1785-yillar) nomzodini surishadi. Lekin u qat'iy markaziy hokimiyatni saqlab qololmadi. Mangʻitlarning tarafdorlari va gʻanimlari oʻrtasidagi oʻzaro janjallar, joylardagi hokimlarning mustaqillikka boʻlgan intilishlari oʻn yillarga choʻzilib ketdi. 1784-yili Doniyorbiyning boʻshligidan norozi boʻlgan Buxoro ahli qoʻzgʻolon koʻtardi va amir hokimiyatni oʻgʻli

1850-yildagi Buxoro xonligi	
Poytaxti	Buxoro
Til(lar)i	O'zbek tili, Fors tili
Dini	Islom
Aholisi	o‘zbeklar, tojiklar
Boshqaruv shakli	mutlaq monarxiya
amir	
- 1785—1800	Amir Shohmurod
- 1911—1920	Said Alim
Meros bo‘lib o‘tishi	
← Buxoro xonligi Buxoro Sovet Xalq Respublikasi →	

Shohmurodga (1785-1800-yillar) topshirdi. Shohmurod yangiliklarni Arkda saroy ahli guvohligida ikkita yirik amaldor - Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni qatl etishdan boshladi. Shundan so‘ng Shohmurod Buxoro ahliga ularni bir necha soliqdan ozod etuvchi imtiyozli hujjatni tantanali tarzda topshirdi. Hujjatning matni tosh lavhada kesilgan bo‘lib, u katta jome’ masjidining ayvoniga o‘rnatildi. Shohmurod „jo‘l“(„jul“) deb nomlangan va urush holatida qo‘shin saqlash maqsadida foydalaniladigan yangi soliq turini joriy qildi. Hokimiyatni o‘z qo‘lida jamlab olgach, u xonlik unvonidan voz kechdi va amirlik darajasida qoldi. Taxtga esa Shohmurod Chingizxon avlodlaridan bo‘lgan Donishmandchini, keyinroq esa Abulg‘ozini

ko‘tardi, lekin ular amalda hokimiyatga ega emasdilar. 1785-yili Shohmurod pul islohotini o‘tkazdi hamda 0,7 misqollik (3,36 g) to‘la qimmatli kumush tangalar va bir xil shakldagi oltin tangalarni zarb etishni yo‘lga qo‘ydi. U sud mahkamasiga ham shaxsan rahbarlik qildi. Shohmurod Buxoro amirligi tarkibiga Amudaryoning chap sohilidagi hududlarni, jumladan, Balx va Marvni qaytardi. 1786-yili u Karmanada xalq qo‘zg‘olonini bosdirdi, keyin Shahrisabz va Xo‘jandga muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Shohmurod afg‘on hukmdori Temurshohdan ustun kelib, asosan o`zbeklar va tojiklar yashaydigan janubiy Turkistonni o‘z qaramog‘ida saqlab qolishga erishdi. Amir Haydar (1800-1826-yy.) otasidan so‘ng taxtga o‘tirgan vaqtda butun Mavorounnahr uning hukmiga bo‘ysinar edi. Haydarning taxtga ko‘tarilishi ommaviy qo‘zg‘olonlar va qatllar bilan to‘g‘ri keldi. 1800-yili Marv turkmanlari bosh ko‘tarishdi. Ichki janjallarga ko‘p o‘tmasdan Qo‘qon bilan O‘ratepa uchun urush qo‘shildi. Haydar ushbu shaharni tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Amir Haydar davrida siyosiy tizim yakka hokimiyatchilik tomon intilayotgan markazlashgan monarxiyadan

tashkil topgan edi. Amirga 4 ming kishigacha yetadigan byurokratik mahkama xizmat qilardi. Armiyaning miqdori oshdi. Faqat Buxoroning o‘zida 12 ming harbiydan iborat qo‘shin turardi. Ahmad Donishning yozib qoldirishicha, Amir Haydar boshqaruv vaqtiga „har 3-6 oyda yuzaga keladigan to‘xtovsiz feodal urushlar davri“ deya baho berish mumkin. Haydardan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Nasrullo (1826-1860-yy.) o‘tirdi. Unga hokimiyat sari yo‘l ochish maqsadida akalari Husayn va Umar o‘ldirildi. Armiya va ruxoniylarga suyangan Nasrullo zodagonlarni jilovlash maqsadida feodal tarqoqlikka qarshi qat’iy kurash olib bordi. Hukmronligining birinchi oyida u har kuni 50-60 tadan kishini qatl qildi. Nasrullo shu paytgacha amirlik tarkibiga faqat nomigagina kirgan viloyatlarni birlashtirishga erishdi. Viloyatlarni boshqarishga o‘ziga mute’ bo‘lgan „nasl-nasabsiz“ kishilarni tayinladi. Nasrullo amirligi chog‘ida Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan Marv, Chorjo‘y, O‘ratepa, Xo‘jand kabi chegarada joylashgan alohida hududlar uchun bo‘lgan tinimsiz urushlar davom etib turdi. Shahrisabz va Kitob hukmdorlarining qarshiligi, ayniqsa kuchli

boʻldi. Bir necha harbiy yurishlardan soʻng 1853-yilga kelib ular Buxoroga boʻysindirildi. Amirlik tarkibiga faqat Zarafsxon daryosining oʻrta va quyi oqimidagi vohagina barqaror kirgan edi.

Siyosiy tarix. Soʻnggi ashtarxoniylardan boʻlgan Abdulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyat zaiflashganligidan foydalangan oʻzbek urugʻlari turli viloyatlarda hokimiyatga qarshi isyon va gʻalayonlar koʻtarishib, oʻzlarini mustaqil deb eʼlon qila boshladilar. Ular orasida ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega boʻlgan, mangʻit urugʻi boshliqlardan biri Muhammad Hakimbiy otaliq (vafoti 1743y) hamda uning oʻgʻli Muhammad Rahimbiyning harakatlari ayniqsa keskin edi.

Buxoroda boʻlib oʻtayotgan tartibsizliklardan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1745 yilda Muhammad Rahimbiy rahbarligida Buxoroga katta qoʻshin joʻnatdi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda viziyatni yumshatish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Miyonqol va

Shahrisabzdagi qoʻzgʻolonlar bostirildi. Muhammad Rahimbiy davlat apparati tizimi ishlari va hukumat amaldorlarini almashtirish ishlariga jiddiy kirishdi.

U deyarli barcha yirik davlat mansablariga oʻzining yaqin qarindoshlari va maslakdoshlarini qoʻyib, ularning yordamiga tayanib poytaxtda oʻz mavqyeni mustahkamlab oldi. 1746 yilda Nodirshoh oʻldirilgach, oradan koʻp oʻtmay Abdulfayzxon ham oʻldirildi. Taxtga oʻtirgan Abdulmoʻmin ham 1748 yilda oʻldirildi. Uning oʻrniga nihoyatda yosh boʻlgan Ubaydulla Sulton nomigagina taxtga oʻtqazildi. 1753 yilga kelib yirik amaldorlar, ruhoniylar va urugʻ oqsoqollarining roziligi bilan Muhammad Rahimxon (1753-1758yy) taxtga oʻtirdi va mangʻitlar sulolasi hukmronligini boshlab berdi.

Muhammad Rahimxon markazlashgan davlat tizimi tuzish siyosatini olib bordi. U yirik mulkdorlarni davlatni boshqaruv ishlariga aralashtirmay, mustaqil siyosat yurgizdi. Bu

hukmdor Miyonqol, Nurota, Urgut, Kobadiyon, Boysun kabi markaziy hokimiyatni tan olmagan viloyatlarga yurishlar qilib, ularni boʻysundirishga erishdi. Uning davrida Zarafshonning yuqori oqimi, Jizzax, Zomin yana Buxoroga qoʻshib olindi. Muhammad Rahimxon qisqa muddat ichida juda katta hududni birlashtirgan mangʻitlarning markaziy davlat tizimini barpo etdi. 1758 yilga kelib Toshkent, Qoʻqon, Marv, Balx, Qunduzdan elchilar kelib uning hokimiyatini tan olganliklarini bildiradilar.

Buxoro amirligi

Buxoro amirligi

Muhammad Rahimxon vafotidan soʻng uning balogʻatga yetmagan kabirasi Fozilto'ra taxtga oʻtqazilib, hokimiyat aslida Muhammad Rahimxonning togʻasi Doniyolbiy otaliq (1750-1785 yy) qoʻliga oʻtdi. Doniyolbiyning hukmronligi davri markaziy hokimiyatning zaiflashuvi bilan izohlanadi. U taxtga oʻtirgan dastabki paytdayoq markazlashagan davlat siyosatiga qarshi gʻalayonlar va qoʻzgʻolonlar koʻtarildi.

Miyonqol vohasi, Shahrisabz va Kitob, Sherobod va Boysun, Hisor viloyatlarida katta-katta xalq gʻalayonlari va chiqishlar boshlanib ketdi. Dastavval, Hisorga badargʻa qilingan yuz, kenagas, burkut, bahrin, saroy kabi oʻzbek urugʻlarining amirlari bosh koʻtardilar. Ular mangʻitlar sulolasini taxtdan agʻdarishni rejalashtirgan edilar. Doniyolbiyning amirlarni tinchlashtirish uchun qilgan harakatlari zoye ketdi. Shundan soʻng Doniyolbiy qoʻzgʻolonlarga qarshi qoʻshin joʻnatdi va Buxoro shahri aholisining yordami bilan qoʻzgʻolon bostirildi. Isyonchi amirlarning koʻpchiligi qatl etildi.

Oradan koʻp oʻtmasdan yuz urugʻlarining boshligʻi Fozilbiy bosh koʻtardi. Doniyolbiy qiyinchilik bilan boʻlsa-da bu qoʻzgʻolonni ham bostirdi. Ayniqsa, 1771 yilda Shahrisabz va Xuzorda koʻtarilgan qoʻzgʻolon davlat asoslarini jiddiy larzaga sodi. Bu qoʻzgʻolonni ham katta kuch sarflab bostirishga erishgan Doniyolbiy qoʻzgʻolonchilar rahabarlarini qatl ettirdi. Mamlakatda gʻalayonlarning deyarli toʻxtovsiz koʻtarilib turishi markaziy hokimiyatning obroʻsini, qudratini tushirib

yubordi. Mamlkatning iqtisodiy ahvol ham nochor holatga tushib qoldi. Natijada 1784 yilda poytaxt Buxoroda ham qoʻzgʻolon koʻtarildi. Qoʻzgʻolon bostirilgan boʻlsa-da, Doniyolbiy 1785 yilda taxtni oʻgʻli Shohmurodga topshirishga majbur boʻldi.

Ark

Ark

Shohmurod taxtga oʻtirganidan soʻng “amir” unvoni bilan hokimiyatni boshqaradi(1785-1800 yy.). U oʻz hukmronligi davrida shaharlar taraqqiyoti va obodonchiligiga, irrigatsiya va qishloq xoʻjaligi rivojiga alohida eʼtibor berdi. Tarixda “Amiri maʼsum”



(“Gunohsiz amir”) nomi bilan qolgan Shohmurod oʻz davrida markaziy hokimiyatni nisbatan

mustahkamlashga erishdi. Uning hukumronligi davrida mamlakatni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan toʻrtta muhim islohot- moliya, sud, maʼmuriy va harbiy islohotlar oʻtkazildi. Avvalo,1758 yildan boshlab, amirlikda toʻla holatda (aralashmalarsiz) kumushdan iborat boʻlgan kumush tangalar,oldingilaridan oʻzining qiymati, sifati va tashqi koʻrinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalar zarb etila boshlandi. U davlat zarbxonalarida aholining oʻz shaxsiy jamgʻarmalaridan olib kelgan kumish va oltindan bir xil oʻlchamdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishga keng ruxsat berdi.

Amir Shohmurod adliya sohasida oʻtkazgan islohoti bilan mamlkatda sud ishlarini olib borishni birmuncha erkinlashtirdi. Manbalarga koʻra, amirlikdagi sud hayʼati ishlarini Shohmurodning bevosita oʻzi boshqargan. Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan boʻlib, barcha viloyat, tuman, beklik qozilari aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borganlar. Umuman olganda,

amir Shohmurod tomonidan oʻtkazilgan islohotlar mamlakatdagi markaziy hokmiyatni mustahkamlab, iqtisodiy yuksalishni taʼminlagan edi. Shuningdek, soliqlarning taribga solinishi, sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qoʻyilishi, mahalliy amaldorlar ustidan nazorat oʻrnatilishi – savdo-sotiq va hunarmandchilikning, qishloq xoʻjaligining yuksalishiga sharoit yaratib bergan edi.

Shohmurod oʻzi idora etib turgan markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash sohasida ham maʼlum ishlarni amalga oshirdi. Uning davrida ham amirlikda bir nechta urugʻlar va ayrim viloyatlarning noroziliklari sodir boʻlib turgan edi. Xususan, 1786 yilda Karmana sarhadi aholisi Buxoro amiriga boʻysunishdan bosh tortdi. Shohmurod Karmana aholisini boʻysundirish uchun bir necha marta yurish qilishga majbur boʻldi. Karmanadan soʻng itoat etmay qoʻygan Shahrisabz va Xoʻjandga qilingan yurishlar muvaffaqiyat bilan yakunlandi.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar va muvaffaqiyatli harbiy harakatlar natijasida ancha mustahkamlanib olgan Shohmurod qoʻshni Afgʻonistonga ham harbiy yurishlar uyushtiradi. Xususan, Shohmurod Amudaryoning oʻng qirgʻogʻidagi ilgarigi Buxoro yerlarini qaytarib olish uchun Afgʻon amiri Temurshohga qarshi urushlar olib boradi. Bu urushlardan soʻng Shohmurod va Timurshoh oʻrta



har ikkala davla belgilandi. Amir etganidan soʻng (1800-1876 yy.) oʻtirdi. Otasi da boʻlgan amir Ha etib koʻtariladi. emas, balki "am Manbalarga koʻ oʻqilgan boʻlsa- amir Shohmuro zarb etilgan.

Buxoro ordeni

Buxoro ordeni

Otasining siyosatini davom ettirishga harakat qilgan amir Haydar oʻz hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro hududining butunligini saqlash, Zarafshonning yuqori oqimi hududlari, Shahrisabz, Miyonqol yerlarini qoʻlda saqlab qolish uchun kurashlar olib bordi. Oʻratepani vaqtincha oʻziga boʻsundirishga erishdi.

Amir Haydar davrida Xiva xonlari amirlik hududlariga tez-tez talonchilik urushlari qilib turdilar. 1806 yilda amir Haydar butun Buxoro ahlini qurollanishga va Xiva xoni Eltuzarga qarshi kurashishga chaqirdi hamda ularni magʻlubiyatga uchratib, amirlik hududlaridan haydab chiqarishga erishdi. Bu urushlardan soʻng Buxoro bilan Qoʻqon oʻrtasida urushlar boshlanib ketdi. Qoʻqon xoni Olimxon 1807, 1810 yillarda Oʻratepaga hujumlar qilib, katta oʻljalarni Qoʻqonga olib ketdi. Bunday hujumlar Qoʻqon xoni tomonidan Jizzax va Zominga ham uyushtirilib turildi.

Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari katta xarajatlarni talab etganligi bois, amir Haydar qoʻshimcha soliqlar yigʻish haqida farmon berdi. Bu esa mehnatkash aholi ahvolini yanada ogʻirlashishga va amir Haydar hamda u olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlarga olib keldi. Mana shunday qoʻzgʻolonlar 1821-1825 yillarda Miyonqol, Samarqand va Urgutda boʻlib oʻtdi. Amir Hayodar bu qoʻzgʻolonlarni katta qiyinchiliklar bilan, qoʻzgʻolonchilarga katta vaʼdalar berish evaziga bostirishga erishdi. Shahrisabz va Marv vohasi uchun ham Amir Haydar urushlar olib borishga majbur boʻldi.

Oʻz davrida Amir Haydar qoʻshni Afgʻon davlati hukmdori Shujoʼ al-mulk Durroniy bilan doʻstlik aloqalarini oʻrnatgan boʻlsa-da, Qoʻqon va Xiva davlatlari bilan Buxoro davlati oʻrtasidagi munosabatlar keskin edi. Manbalarga koʻra, shunday sharoitda amir Haydar hatto Turkiya sultoni Mahmud II ga yordam soʻrab murojaat etgan va uning itoatiga oʻtishga tayyor ekanligini ham maʼlum qilgan.



Buxoro amirligi ordenlari

Buxoro amirligi ordenlari

Amir Haydar 1826 yilda vafot etganidan soʻng uning ikkita katta oʻgʻillari amir Husayn(ikki yarim oy) va amir Umar (toʻrt oy) qisqa

muddat taxtga oʻtirib, oʻz ukalari Nasrullo tomonidan oʻldiriladilar. Shundan soʻng taxtga amir Haydarning uchinchi oʻgʻli Nasrullo oʻtirdi. Amir Nasrulloning hukmronlik davri (1826-1860 yy.) avvalo, Buxoro amirligidagi siyosiy tarqoqlik, zodagonlarning boshboshdoqliklariga barham berish bilan izohlanadi. Amir Nasrullo hokimiyatni boshqarishda nihoyatda qattiq qoʻllik siyosatini olib bordi. Oʻzining berahmlik siyosati tufayli amir Nasrullo "qassob amir" degan nomga sazovor boʻlgan edi.

Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni tan olmaydigan boʻysunmas mahalliy hokimlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Bu borada Shahrisabz Buxoroga boʻysunmay qoʻygan eng yirik mustaqil viloyat hisoblanardi. Shuning uchun ham amirning siyosatidan anrozi boʻlgan koʻplab amaldorlar Shahrisabzga qochib panoh topganlar. Amir Nasrullo 1832 yilda Shahrisabzga qarshi urush boshlab, 32 marta yurishdan soʻng 1552 yilda Shahrisabz va Kitobni boʻysundirishga erishadi.

Amir Nasrullo Qoʻqon va Xiva xonlari bilan ham urushlar olib bordi. U 1842 yilda Qoʻqonga yurish qilib uni egalladi. Ammo, bu paytda Xiva xoni Olloqulixon Buxoro chegaralariga hujum qilganligini eshitgach, Qoʻqonga oʻz noibini qoldirib orqaga qaytishga majbur boʻldi. Amir Nasrullo oʻz qoʻshinlari bilan Xivaga yurish qilib, Xazoraspni qamal qildi. Ammo, magʻlubiyatga uchrab qaytib ketishga majbur boʻldi.

Amir Nasrullo oʻz hukumronligi davrida Oʻratepa va Xoʻjand uchun Qoʻqon xoni bilan toʻxtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qoʻlda-qoʻlga oʻtib koʻpgina vayronagarchiliklar kelib chiqdi, talon-talojlik avj oldi.

Manbalarga koʻra, Qoʻqondan Keshgacha boʻlgan barcha mamlakatlarni boʻysundirgan amir Nasrullo Buxoroning amaldagi oxirgi mustaqil hukmdori boʻlib qoldi. Amir Nasrullodan soʻng taxtga uning oʻgʻli amir

Muzaffar(1860-1885 yy.)oʻtirdi. U mangʻitlar sulolasidan boʻlgan toʻrtinchi amir boʻlib, uning 25 yillik hukumronlik davrida juda koʻp voqyealar sodir boʻldiki, ulardan eng ayanchlisi – Buxoro amirligining Rossiya imperatori vassaliga aylanishidir.

Buxoro amirligi pul birligi

Buxoro amirligi pul birligi

Amir Muzaffar oʻz hukmronligining dastlabki yillarida ulamolarga deyarli eʼtibor bermadi, ular bilan biror-bir masala yuzasidan maslahat ham qilmadi. Ammo, 1868 yilda amir ruslardan magʻlubiyatga uchragach, ulamolarga yon berishga majbur boʻldi. Chunki ulamolar mahalliy aholini ruslarga qarshi kurashishga daʼvat etgan edilar. Lekin fursat qoʻldan boy berilgan edi. Ulamolarning



xalqni koʻtarishi ham, amirning oʻgʻli Katta Toʻra (Abdumalik), Kitob va

Shahrisabz beklarining saʼy-harkatlari ham besamar ketdi. Zirabuloq yaqinidagi jangda magʻlubiyatga uchragan amir Muzaffar ruslar tomonidan tuzilgan shartnomaga imzo chekishga majbur boʻldi. Unga koʻra amir Oʻratepa, Jizzax, Zarafshon vohasi hududlaridan mahrum boʻldi, rus hukumatiga 125 ming tillo miqdorda tovon toʻlaydigan boʻldi hamda Buxoroning Rossiyaga vassalligini tan oldi.

Amir Muzaffar hukmronligi davrida amirlik hududlari ancha qisqardi. Bunga avvalo rus bosqini sabab boʻlgan boʻlsa, katta qiyinchilik bilan buysoʻndiriligan Shahrisabz va Kitob bekliklari yana Buxoroga buysunishdan bosh tortdilar. Undan tashqari, ruslarga toʻlangan katta tovon evaziga amirlik xazinasi boʻshab qoldi. Amir oʻz xazinasini toʻldirish uchun qozilar va raislarga aholidan turli xil yigʻimlar yigʻishga ruxsat berdi. Chunki bu yigʻimlarning katta qismi turli xil sovgʻalar va inʼomlar tariqasida xazinaga kelib tushardi.

Amir Muzaffar oʻgʻli Abdulahadni taxt merosxoʻri deb eʼlon qildi va oʻsha yili uni

Rossiya imperatori Aleksand Aleksandorovichning taxtga o‘tirish marosimi tantanasiga qatnashish uchun Moskvaga jo‘natdi. Podsho Aleksandr III ga Buxoro yulduzi ordeni topshirildi va Abdulahad haqiqiy taxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan tasdiqlandi. 1883 yilda esa amir Muzaffar Rossiya imperiyasining I-darajali Muqaddas Anna ordeni bilan taqdirlandi. Arxiv ma’lumotlariga qaraganda, bu mukofotni Buxoroga imperiyaning nufuzli amaldorlaridan biri – general-mayor, knyaz Vitgenshteyn boshchiligidagi maxsus elchilar guruhi olib kelgan.



Buxoro amirining Qrimdagi saroyi

Buxoro amirining Qrimdagi saroyi



Buxoro amirining Sankt-Peterburgdagi uyi

Buxoro amirining Sankt-Peterburgdagi uyi

Amir Muzaffar 1885 yil 31 oktyabrda kasallik tufayli vafot etadi. Uning oʻgʻli amir Sayyid Abdullahad 1885-1910 yillar Buxoro amirligi taxtini boshqardi. Abdulahad 14 yoshidan boshlab Karmana beki etib tayinlangan. Rus sayyohlarining maʼlumotlariga koʻra u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885 yil 4 noyabrda amir Muzaffarni Buxoro arkida

oq kigizga oʻtirgʻizib, taxtga oʻtqazish marosimi boʻlib oʻtdi.

Amir Abdulahad sayohat qilishni yaxshi koʻrgan. U turli yillarda Moskva, Sankt-Peterburug, Kiyev, Odessa, Yekaterinaslov, Boku, Tiflis, Botumi, Sevastopol, Bogʻchasaroy kabi shaharlarda boʻlgan. Amir har yili Kavkazda, Qrim yoki Yaltada dam olgan. Uning hukmronligi davrida qiynoqlar, oʻlim hukmi va eng dahshatli jazo, Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulahad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yoʻllari qurilishi,savdo faol rivojlantiriladi.

Abdulahad amirlikdagi harbiy kuchlarga alohida eʼtibor bergan. Yoshlik chogʻidayoq boʻlajak amir oʻz garnizonida harbiy mashqlar oʻtkazib, Karmana qalʼasini yaxshi harbiy holatda tutgan.1895 yildan boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yoʻlga qoʻyilgan. Keyinchalik ham amir Abdulahad oʻz qoʻshinini harbiy tayyorgarligini oshirish va

zamonaviy qurollantirish uchun koʻpgina ishlarni amalga oshirgan.

Amir Muzaffar 1910 yil 22 dekabrda buyrak kasalidan vafot etgach 1911 yil yanvarda uning ikkinchi oʻgʻli Sayyid Mir Olim taxtga oʻtiradi. Olimxon 1893-1896 yillarda Peterburgda taʼlim olgan. Undan soʻng avval Nasaf viloyatiga, keyin esa Karmanaga hokimlik qilgan. 1911-1920 yillar Buxoro taxtini boshqargan amir Olimxon Buxoroda sovet hukumati oʻrnatilgach Afgʻonistonga chiqib ketdi va 1944 yil Qobulda vafot etdi.

Amirlikning hududi, maʼmuriy tuzilishi va aholisi. Oʻrta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqyeiga ega boʻlgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga koʻra, XVIII asrning oʻrtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha oʻzgarishlar sodir boʻladi. Bu davrda Buxoro hukmdorlari oʻz tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Vobkent, Gʻijduvon, Qorakoʻl, Vagʻoza tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qololgan edilar. Xoʻjand,

Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa Gʻuzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek Amudaryoning oʻng sohilidagi Balx, Andxay, Maymana, Badaxshon va Shibirgʻonlar ham Buxoroga vassal boʻlishiga qaramay unga itoat etmay qoʻyganlar.Siyosiy parokandalikning asosiy sababi – soʻnggi ashtarxoniylar davridagi oʻzaro kurshalar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqyeining oʻsishi edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, yaʼni mangʻitlar sulolasi hukmronligi oʻrnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini oʻz ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surhon vohasi, Hisor, Xoʻjand, Oʻratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjoʻydan to Murgʻob daryosigacha boʻlgan hududlar kirar edi. Bu davrda Buxoro amirligi

hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mangʻitlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afgʻoniston,ikkichi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va toʻrtinchi tomondan Qoʻqon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi.

Buxoroning soʻnggi amiri Sayyid Amir Olimxonning 1927 yilgi maʼlumotlariga koʻra, XX asr boshiga kelib “Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, yaʼni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha choʻzilib boradi. Buxoro shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan, gʻarb tarafdan Sirdaryo hamda Xoʻqand xonligi bilan, janubda esa Afgʻoniston, Sharqda turkman oʻlkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh ”

XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan boʻlib,ulardan Buxoro va Samarqand oʻz navbatida tumanlarga boʻlingan edi. Viloyat

hukumdorlari hokim deb atalgan. Keyinchalik viloyat oʻrniga bekliklar paydo boʻlgach ularning hukmdorlari bek deb atalgan. Yangi maʼlumotlarga koʻra, bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud boʻlgan.

Mirzo Badi Devonning “Majmaʼ ul-arqom” asaridagi maʼlumotlarga koʻra,amirlik quyidagi maʼmuriy-hududiy boʻlaklarga: 100 ming tanobdan iborat sugʻoriladigan yer tumanga, 50 ming tanobdan iborat sugʻoriladigan yer hazoraga, 25ming tanob sugʻoriladigan yer nimhazoraga, 10-15 ming tanob sugʻoriladigan yer obxoʻriga, 400 tanob sugʻoriladigan yer qariyaga, 300 tanob sugʻoriladigan yer maʼrazaga (ekinzor) boʻlingan. Bunday tartibda boʻlinish boʻyicha xiroj,zakot va boshqa turdagi soliqlarni yigʻish va olish qulay boʻlgan.

Tadqiqotlar natijalariga koʻra, mahalliy maʼmuriyat namoyondalari mavzeni qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy boʻlinma deb taʼriflanganlar. Misol uchun, Karki viloyati mavzelarga boʻlinsa ham ular oʻz

navbatida bekchalarga boʻlingan, bekcha qishloqlardan iborat boʻlgan. Pomir viloyatlaridagi Roʻshon va Shugʻnon maʼmuriy tumanlari oqsoqollik deyilgan. Aholi yashaydigan punktlar manbalarda uchta atama- qishloq, mavze, daha nomlari orqali qayd etilgan.

Maʼlumotlarga koʻra,Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez koʻpaya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln.dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5mlndan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqanda shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Amirlik aholisning katta qismini oʻzbeklar tashkil qilgan boʻlib,juda koʻplab oʻzbek urugʻlari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashaganlar. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand,Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, togʻli tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin,

Koʻlob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabogʻ bekliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilganlar.

Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etganlar.

Buxoro amirligi aholisining hududiy joylashuvi
(Xoliqova R.E. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari.tarix fan.dokt.diss. Toshkent. 2006. 67-70 bb.)

Hududlar (vodiy va vohalar)	Istiqomat qiluvchi aholi soni (taxminan)	Foiz hisobida
Zarafshon vohasida	700.000	31.8
Qashqadaryo vohasida	500.000	22.2
Qizilqum va Yaksuv bo‘yidagi vohalarda	225.000	12.0
Amudaryo bo‘yidagi vohalarda (Surxonning quyilishidan to Chorjo‘ygacha)	300.000	14.0
Qolgan hududlarda	430.000	20.0
Butun amirlik bo‘yicha	2.155.000	100.0

Buxoro amirligi aholisining yashash tarzi bo‘yicha taqsimoti

Aholining yashash tarzi	Aholi soni	Foizda
O‘troq aholi	1.399.606	65.0
Yarim ko‘chmanchi aholi	322.986	15.0
Ko‘chmanchi aholi	430.648	20.0
Jami	2.153.240	100.0

Buxoro amirligi aholisning xo‘jalik yuritish bo‘yicha taqsimoti

Aholining xo‘jalik yuritish tarzi	Aholi soni	Foizda
Dehqonchilik va chorvachilik	1.830.254	85.0
Hunarmandchilik va savdo	215.324	10.0
Doimiy xo‘jalik ish yuritishga ega bo‘lmaganlar	107.662	5.0
Jami	2.153.240	100.0

Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi

Etnik guruhlar	Jami aholiga nisbatan foiz hisobida	Aholi soni
Turkiy xalqlar	85.0	1.830.254
Eroniy xalqlar	12.0	258.389
Boshqa elatlar	3.0	64.597
Jami	100.0	2.153.240

Shuningdek amirlik hududida hindlar, eroniylar, yahudiylar, lo‘lilar, afg‘onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham istiqomat qilganlar.

Buxoro amirligida istiqomat qilgan nomahalliy xalqlar,jumladan hindlar va yahudiylar ijtimoiy qatlam sifatida to‘la huquqga ega emas edilar va ular alohida mavzelarda yashaganlar. Amirlikda o‘troq aholidan tashqari tog‘ oldi va dasht hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi ham yashagan.

Davlat boshqaruvi tizimi. Buxoro amirligida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mangʻitlar sulolasining vakillari hukmronlik qiladilar. Sulola hukmronligining asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy biroz muddat (1747 yildan keyin) Abdulfayzxonning oʻgʻillariga otaliq boʻlgan boʻlib, 1756 yilda sayidlar, xoʻjalar va ruhoniylar tomonidan Buxoro taxtiga oʻtqaziladi. Rahimbiy xon unvonini olmasdan oʻzini "noib ul-hukumat" ("hokim oʻrinbosari") deb bilgan. Doniyolbiy otaliq ham xonlikka daʼvo qilmay avval Fozilto'rani, keyin esa Abdulgʻoziyni(1758-1784 yy.) xon deb eʼlon qilib, oʻzi ularga noib hisoblangan. Shohmurod 1785 yilda Buxoroda "amir" unvoni bilan taxtga oʻtiradi.

Buxoro amirligining siyosiy tizimi, idora etish tartib-qoidalari, davlat ramzlari, unvon va mansablar haqida koʻpgina olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarning tahlillari shuni koʻrsatadiki, mangʻitlar hukumronligi davrida davlat tizmida jiddiy oʻzgarishlar amalga oshirilmagan. Bu davrda oliy hukumdor garchi amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan boʻlsa-da, Buxoro

amirligi ham oʻz tizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan, oʻrta asrlar Movarounnahrdagi musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxoniylar davlat tizmidan deyarli farq qilmagan.

Buxoro amiri Sayyid Olimxon oʻzining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlari hamda davlat boshqaruvi haqida maʼlumotlar berib, jumladan quyidagilarni yozadi: "Buxoro amirlari hukm yuritishlarida – shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islom ulamolari amirni paygʻambar xalifasi-oʻrinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilar edi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos boʻlardi, uni buzish mumkin emas edi. Buxoro xonlari butunlay mangʻitlarning oʻzbek toifasidan boʻlgan. Buxoro podshohlarini oʻzbek odatlariga koʻra, toʻshakcha ustiga tabarrukona oʻtqazib, sayyidlar, xoʻjalar va mullolar uni yerdan koʻtaradilar.

Buxoro mamlakati 28 ta viloyat (bogʻot)ga boʻlinar edi. Eng katta viloyatlarga amirning oʻzi hokimlarni tayinlar edi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorakoʻl, Boysun, Hisor, Dehnov, Qoʻrgʻon, Boljuvon, Koʻlob, Qubodiyon, Darvoz, Roʻshon, Samarqand, Miyonqol, Farob, Urmeton va Maschohlar kirar edi. Valiahdga qarashli mulk Qarshi hisoblanar edi.”

Buxoro amirligida davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega boʻlgan amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat ahmiyatiga molik boʻlgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy,diniy va boshqa masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh – Arkda koʻrib chiqilgan hamda hal etilgan. Bosh qarorgoh hisoblangan Arkda amir va uning oilasidan tashqari qoʻshbegi, shigʻovul, toʻpchiboshi, mirzaboshi kabi saroy amaldorlari oʻz oilalari va xizmatkorlari bilan yashagan.

Zaruratga qarab mamlakat poytaxtida amir boshchiligida Davlat Kengashi chaqirilib turilgan. Anʼanaga koʻra, lavozimlariga qarab

5 tadan 20 tagacha amaldorlar a’zo bo‘lgan ushbu kengashda mamlakat hayotiga doir eng muhim masalalar ko‘rib chiqilgan.

Ilgarigi davrlarda bo‘lagani kabi mang‘itlar davrida ham davlat boshqaruvi tizimi ikki bo‘g‘in – markaziy va mahalliy boshqaruv tizimidan iborat bo‘lgan. Bu tizimlar musulmon davlatlariga xos bo‘lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega bo‘lgan hamda asosan amir, saroy amladorlari, o‘zbek urug‘lari va qabila boshliqlari, ulamolar, harbiy boshliqlardan tashkil topgan. Amirlikdagi markaziy hokmiyat amir boshchiligidagi saroy a’yonlari qo‘lida bo‘lsa, mahalliy boshqaruv viloyat noiblari qo‘lida edi. Viloyat beklari amir tomonidan asosan mang‘it urug‘i vakillaridan tayinlangan.

Amirlikning poytaxti Buxoro va uning atrofidagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Viloyat beklari nisbatan kichik hududiy bo‘linmalar amlok mulklar hisoblanib, ularning boshqaruvchilari amaldor deb atalgan. Amirlikning ma’muriy

tuzilishidagi eng quyi boʻgʻin qishloq jamoalari boʻlib, ularni oqsoqollar boshqargan. Xullas, Buxoro amirligi rus istilosiga qadar hozirgi Oʻzbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining katta qismini oʻz ichiga olgan Oʻrta Osiyodagi yirik davlat edi.

Mansablar, unvonlar va amallar. Avvalo, taʼkidlash lozimki, manbalar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud boʻlgan unvon, mansab hamda amallarga oid maʼlumotlar juda chalkash, koʻp hollarda bir-birini inkor etadi. Soʻnggi yillarda Sh.Vohidov va R. Xoliqovalar oʻz tadqiqotlarida ushbu masalalarga aniqlik kiritishga harakat qilganlar. Quyida ularning tadqiqotlariga asoslanib amirlikdagi mansablar va unvonlar haqida soʻz yuritamiz.

Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo mangʻit urugʻi vakillariga,sayyidlarga, xoʻjalarga hamda ulamolarga berilgan boʻlib, davlatdagi eng yuqori unvon amir ul-umaro, otaliq,

hokim(valiy, bek), qoʻshbegi va devonbegilar boʻlgan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega boʻlgan. Oltin Oʻrda davlatida joriy etilgan otaliq unvoni mangʻitlar davriga kelib otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va maʼmuriy ishlarda asosiy vakiliga aylandi. Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining tasimotini nazorat qilish, Buxoro kanali(rud-i shahr) va dorugʻalik vazifasi yuklanadi.

Budavrda qoʻshbegi yoki qoʻshbegiyi bolo eng oliy saroy mansabi hisoblanib uning mavqyei juda baland boʻlgan. Amalda bosh vazir vazifasini bajargan bu mansab egasi iqtisodiy,siyosiy va harbiy masalalar boʻyicha amirning eng yaqin odami boʻlgan. Saroydagi oliy mansablardan yana biri devonbegi boʻlib,bu mansabdor vazir vakolatlariga ega boʻlgan. Devonbegi moliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yigʻish ustidan toʻla nazorat qilish ishlariga javob bergan.

Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida oʻrin egallagan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Shahardagi jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan boʻlib, ular shahar mirshabboshisiga boʻysunishgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga boshqa barcha shaharlar mirshabboshilari boʻysungan. Mangʻitlar davrida Buxoroda qoʻshbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi birgalikda "chor hokim", yaʼni, "toʻrt hokim" deb yuritilgan.

Amirlikning boshqaruv tizimida bosh rais alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Ushbu amal yarim diniy, yarim targʻibotchi usulida edi. Amirlikda bosh rais odatda eshon rais yoki rais-ush shariat deb atalgan boʻlib unga barcha mahalliy raislar boʻysungan. Bosh rais ularni vaqti-vaqti bilan amir oldida tekshiruvdan oʻtkazib turgan. Eshon rais qozikalondan keyin turadigan amaldor boʻlib,

uning mahkamasiga vaqtincha oʻrinbosarlik qiluvchi xalifa, noib, mulozimlar, mirzalar, miroxoʻrboshi, tergovchi, shahar mirobi kabilar kirgan.

Amir saroyida ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar boʻlgan mirshab va uning qoʻl ostidagilar, suv taʼminotiga javobgar boʻlgan mirob va uning qoʻl ostida ishlaydiganlar kirgan. Mirshab qoʻl ostida yasovulboshi, devonbegi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi,shabgard(kechki qorovul), farroshboshi kabilar boʻlgan. Mirob tasarrufida esa mahram,mirzalar, bakovullar, miroxoʻrlar, suv tarmoqlari nazoratchilari,mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari faoliyat yuritganlar.

Amirning ikkinchi vaziri qoʻshbegi poyon, baʼzi manbalarda mir poyon deb atalgan boʻlib, unga yasovulboshi, miroxoʻrboshi, xazinachi, mirzalar,bakovulboshi, zakotchilar boʻysungan. Miri poyon ularni bevosita oʻz nazoratiga olib turgan.

Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud boʻlgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh boʻlib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni koʻtib oluvchi shigʻovul, amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi tongotar(tunqator), amirga qaratilgan salom va taʼzimlarni qabul qiluvchi javobgar salom ogʻasi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chogʻida nomozga chorlovchi imomi jilov, amir safari chogʻida qonun bilan shugʻullanuvchi mufti jilov, amir maslahatchilari guruhi jamʼogʻa kabilar shular jumlasidan. Amirga boʻlgan sadoqati va xizmati uchun alohida shaxslar dodhoh, inoq, toʻqsabo, otaliq, eshikogʻasi kabi unvonlarga ega boʻlganlar.

XVIII-XIX asrning birinchi yarmida amirlikda eng oliy diniy mansab shayxulislom hisoblangan. Ammo,bu davrda uning vazifalari ancha toraygan edi. XIX asr

oʻrtalaridan boshlab shayxulislom oʻrnini qozikalon egallaydi. YUqorida eslatilgan amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais qatnashgan.

Amir Muzaffar davridan boshlab amirlikdagi barcha huquqiy normalar qozilar tomonidan hal qilingan. Barcha fuqarolik,xoʻjalik va jinoiy ishlar Qurʼon asosida koʻrib chiqilgan hamda jazolar tayinlangan. Qozilar amir irodasiga koʻra qozikalon tomonidan tayinlangan. Shariat boʻyicha boshqaruv qozilar qoʻlida boʻlgan. Qozikalon amirlik poytaxtining bosh qozisi boʻlishi bilan birga, davlatdagi boshqa qozilar boshligʻi hisoblangan.

Amirlikda rasman uchta diniy unvon – oʻroq, sudur va sadr mavjud boʻlgan. Manbalarga koʻra, madrasani tugutgan shaxs mulla, qozi, rais amallarini egallashi mumkin boʻlgan. YUqoridagi amallarda bir necha yil ishlagnidan soʻng shariat huquqlari sohasida toʻplagan bilim va tajribalari asosida bunday

shaxslarga dastlab oʻroq, keyin sudr va soʻngra sadr unvonlari berilgan. Eng oxirgi diniy unvoni boʻlgan shaxslar qozikalon, muftiy, aʼlam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin boʻlgan.

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masalalar bilan shugʻullanuvchi maxsus amaldor-qozi askar koʻrib chiqqan. Harbiy jinoyatlar boʻyicha fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida boʻlgan. Demak, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan koʻrib chiqilgan.

Amir Nasrullo davrida amirlikda muntazam qoʻshin – sarbozlar qoʻshini tashkil etilgan. Eng yuqori harbiy unvonlar sarkarda, amiri lashkar, dodxoh(qoʻshin boshligʻi) kabilar boʻlib, qoʻronbegi, toʻqsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar ham faoliyat yuritgan. Bekliklar hududidagi qoʻshinga beklarning oʻzlari rahbarlik qilganlar. Bekning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi boshchiligidagi yasovullar

boʻlgan. Qoʻshinda ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, oʻnboshi, miroxoʻr kabi boʻlinma boshliqlari ham boʻlgan. Ming boshi bayroq(tugʻ) koʻtarib yurish huquqiga ega edi.


Yer egaligi munosabatlari. Dehqonchilik va chorvachilik. Oʻrta Osiyoning barcha hududlarida boʻlgan kabi Buxoro amirligida ham agrar munosabatlar, yaʼni, yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Manbalarga koʻra amirlikda yer egaligining quyidagi toʻrtta turi: davlatga tegishli yerlar(mulki sultoniy); xususiy yerlar(mulk); diniy muassasalar ixtiyoridagi yerlar (vaqf) va qishloq jamoalariga tegishli yerlar mavjud boʻlgan, Arxiv manbalarida amlok yerlar, amloki sultoniy, podshoh yerlari kabi atamalar bilan atalagan davlat yerlari bilan bir qatorda mulki xirojiy, xiroj yerlari atamasi ham tilga olinadi.

Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hadya etish hamda vaqfga berish taqiqlangan boʻlsa-da, bunga doimo ham amal qilinmagan. Davlat yerlari boʻsh yotgan yerlar (qamishzorlar, toshloq, toʻqayzor, togʻoldi)ni oʻzlashtirish hisobiga koʻpaytirib turilgan. Bunday yerlarni oʻzlashtirgan shaxslar bir necha yil soliqlardan ozod etilib, keyin belgilangan tartibda soliq toʻlaganlar.

Undan tashqari davlat (amlok) yerlari hukumdor oldida katta gunoh qilgan yirik yer egallaridan musodara qilingan yerlar hisobiga hamda merosxo‘ri bo‘lmasdan



Бухоро амирлигидаги унвон ва мансаблар *(Сагдуллаев А.С. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи...., 213.б. Қисман ўзгартириш киритилди)*



vafot etgan shaxslarning yerlari davlat ixtiyoriga oʻtishi hisobidan ham koʻpaygan. Ayrim manbalarga koʻra, davlat yerlaridan doimiy mavjud boʻlgan yer soligʻi – xiroj olingan boʻlsa, boshqa manbalarda davlat yerlaridan hosilning katta qismi, ya’ni 40-50 foizi olinganligi qayd etiladi.

Amirlikda mavjud boʻlgan yana bir yer egalligi shakli mulk(xususiy) yerlar boʻlib,bu yer egaligi shakli qoʻzgʻalmas mulk hisoblangan hamda hech qanday cheklanishlarsiz meros qilib qoldirish mumkin boʻlgan. Mulk yerlaridan olinadigan soliqlar haqida tadqiqotchilarning turli fikrlari mavjud. Yangi tadqiqotlar (R.Xoliqova) tahlili shuni koʻrsatadiki, mulki xurr yoki mulki xolis ayrim yirik yer egalariga tegishli boʻlgan yer egaligi shakli hisoblangan. Mulki xurr egasi doimo amaldagi hukmdor tomonidan berilgan yorliqqa ega boʻlishi shart boʻlgan va aynan

shu yorliq tufayli u yer solig‘idan ozod qilingan.

Amirlikda dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan mulki xiroj atamasi ishlatilgan. Bunday yerlarga ega bo‘lgan yer egalari o‘z yerlarini erkin sotish, meros qoldirish va hadya qilish huquqiga ega bo‘lganlar. Bunday yerlardan rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo‘lsada, amirlikning har biri hududida o‘rnatilgan va belgilangan tartib hamda urf-odatlarga ko‘ra, soliq miqdori hosilning uchdan biridan to beshdan birigacha bo‘lgan.

A’anaga ko‘ra, vaqf yerlari asosan diniy muassasalar – machitlar, mozorlar,xonaqo, madrasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo‘lib, u yer egaligining alohida shaklini tashkil etgan. Ushbu yerlardan tushgan foyda mutavalli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli asosan vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan bo‘lib, u vaqf

hujjatlariga asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf yerlarini sotish, bunday yerlardan soliq olish taqiqlangan boʻlsada, manbalar va hujjatlar bunga amal qilinmaganligini koʻrsatadi.

Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli tarqaladi. Nasrullo oʻziga boʻysunmagan amaldorlar va urugʻ oqsoqollarining yerlarini musodara qilib, bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan oʻz tarafdorlariga hadya(tanho) qilgan. Amir Muzaffar davridan boshlab tanho togʻli hududlarga ham yoyiladi. Tanho turli hajmda(bir necha tanobdan bir necha yuz tanbogacha) berilgan boʻlib, tanhoning berilish miqdori eng avvalo, yerning sugʻorilishi, yerning unumdorligi, qolaversa, amaldorning egallagan mavqyei va taʼsiriga ham bogʻliq boʻlgan.

Dehqonchilik va chorvachilik Buxoro amirligi iqtisodining asosiy tarmoqlari hisoblangan. Aholining sakson besh foizi dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullanganligi ham

fikrimiz dalilidir. Amirlikda XVIII asrning oxirlaridan boshlangan iqtisodiy yuksalish,avvalo dehqonchilikning tiklanishi bilan izohlanadi. An’anaga ko‘ra, sug‘oriladigan hamda lalmikor yerlarda dehqonchilik sohasida bug‘doy, arpa, jo‘xori, poliz va sabzavot ekinlari yetishtirishga katta e’tibor qaratilgan. uzumchilik va bog‘dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Manbalarga ko‘ra, amirlikda uzumning 10 dan ortiq navlari yetishtirilgan.

Amirlikda sholikorlik ham yaxshi taraqqiy etgan. Nisbatan sifatli sholi Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on va Hisor vohalarida yetishtirilgan. Shahrisabz va Hisor sholikorlari amirlikning poytaxti Buxoroni doimiy ravishda sifatli guruch bilan ta’minlab turganlar.

Amirlikda XIX asrning boshidan boshlab Rossiyaga ko‘p miqdorda paxta sotilishi natijasida paxtachilikka e’tibor kuchaytirilgan. Rus manbalariga ko‘ra, Buxoro amirligining “Qashqadaryo vohasi,

Surxondaryo vohasida, Yakkabogʻ, Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz, Gʻuzor, Termiz, Sherobod, Hisor tumanlarida paxta katta miqdorda yetishtiriladi. Oʻrta Osiyo xonliklari ichida Buxoro paxtasi alohida diqqatga sazovor boʻlib, u ancha qimmat turadi”.

Shariatda chekish taʼqiqlanganligiga qaramasdan, Qarshi va Miyonqol vohalarida tamaki yetishtirish rivojlangan. Qarshi tamakisi eng sifatli tamaki hisoblangan. Undan tashqari amirlikda ipakchilikning rivojlanishiga ham katta eʼtibor qaratilgan. Buxoro vohasi, Zarafshon vodiysi, Karamana, Shahrisabz, Kitob, Miyonqol, umuman, suv koʻp boʻlgan barcha hududlarda tut daraxtlari nihoyatda koʻp oʻstirilgan. Buxoroda va boshqa yirik shaharlarda toza ipak va yarim ipakdan turli xil matolar tayyorlangan.

Amirlikdagi dehqonchilik va bogʻdorchilik oddiy va anʼanaviy holatda boʻlgan. Yerlar ot, hoʻkiz kam hollarda tuyalarga omoch qoʻshilib haydalgan hamda mola, ketmon va bel orqali ishlov berilgan.

Amirlikda mavjud boʻlgan choʻl va dasht hududlari,togʻ va togʻ oldi adirlari mahsuldor chorvachilik uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. Amirlikning choʻl hududlarida, jumladan Buxoro va Qarshi hududlarida qorakoʻl teri yetishtirishga ixtisoslashgan qoʻychilik taraqqiy etgan. Bunga asosiy sabab, tashqi bozorda (ayniqsa Rossiya bozorida) qorakoʻl terisiga, undan ishlangan mahsulotlarga talab nihoyatda katta edi. Chorvachilikning yetakchi tarmogʻi sifatida yilqichilik nafaqt dasht hududlarda,balki vohalarda ham rivojlangan. Shahrisabzning qorabayir va Qarshining arabi otlari oʻz chidamliligi, tezligi va kuchi bilan butun amirlik va undan tashqarida ham mashhur boʻlgan.

Chorvachilikda tuyachilikka ham alohida eʼtibor berilgan. Ogʻir va olis yoʻllar hamda suvsizlikka chidamli boʻlgan ogʻir yuk koʻtaruvchi tuyalardan karvon savdosida,tegirmonlarda, yogʻ chiqarishda kam hollarda yer haydashda foydalanilgan.

Shuningdek tuyaning suti va juni qadrlangan. Amirlikda chorvachilikka ixtisoslashgan xoʻjaliklarning ichki va tashqi bozorga tuyoqli mollar, sifatli teri, jun va boshqa turli mahsulotlar(shol,namat,arqon va boshq) hamda oziq-ovqat (goʻsht va sut mahsulotlari) yetkazib berishdagi ahamiyati nihoyatda katta edi.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Buxoro amirligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahammiyatga ega boʻlgan boʻlsa-da,koʻpgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi. Butun oʻrta asrlarda mavjud boʻlganidek,amirlik davrida ham hunarmandlar uyushmalari (kasaba, sexga ega boʻlganlar).Uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat oʻrnatishga,mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bogʻliq edi. Amirlikdagi hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud boʻlib,uni saylab qoʻyiladigan shaxs-rais yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar ishlab chiqargan

mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va toʻlovlar yigʻimida, usta va shogird munosabatlarida, xoʻjalik ishlarini yuritishda uyushma raisining xizmati katta boʻlgan.

Ilgarigi davrlarda boʻlganidek, amirlikning hunarmandchiligi sohasida toʻqimachilik uning asosiy tarmogʻi hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak yetarli darajada boʻlgan boʻlsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda toʻqimachilik mahsulotlariga talab katta edi. Amirlikda ayniqsa boʻz, chit,olacha koʻp miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hissor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida eʼtibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato toʻqish, tayyor kiyim tikish, gilam toʻqish va boshqa toʻqimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar maʼlumotlariga koʻra, Buxoroning zarbof toʻnlari, Shahrisabzning iroqi doʻppilari,Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun

hunarmandlarining ipak matolari amirlikdan tashqarida ham juda mashhur boʻlgan

Amirlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xoʻjlik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega boʻlgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisab, Urgut, Dehnov, Gʻijduvon kabilar boʻlib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta boʻlgan. Amirlik kulolchiligida Oʻrta Osiyoning koʻpgina kulolchilik maktablariga xos boʻlgan manzaralar(turli gullar va oʻsimliklar tasviri), turli hayvonlar,qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qoʻllanilgan.

Amirlik iqtisodiyotining metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan. Shahrisabz, Urgut, Nurota, Bosun, Sherobod kabi togʻli tumanlardan maʼdanlar qazib olingan boʻlib, ulardagi konlardan

foydalanish ba’zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda amirlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to‘rtta asosiy tarmog‘i-temirchilik, misgarlik, cho‘yan quyish va rixtagarlikni alohida ko‘rsatish mumkin. Temirchilik sohasida ustalar qishloq xo‘jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Amirlikning ko‘pgina shaharlarida Temirchi, Guzari, Chilangaron kami chilnagar-temirchilarning maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha tarqqiy etganligini ko‘rsatadi. Amirlikning asosan yirik shaharlarida misgarlik ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo‘lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko‘zacha, tog‘oracha kabi ko‘plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida degrezlik-choʻyan quyishning alohida oʻrni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus guzarlarda yashaganlar. Ular choʻyandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasaganlar. Bronzadan buyumlar yasash –rixtagarlik ham amirlikning koʻpgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar.

Undan tashqari amirlikda hunarmandchilikning boshqa koʻpgina turlari ham rivojlangan. Xusuan Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar amirlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur boʻlgan. Koʻnchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, poʻstin va nim poʻstin, turli xil meshlar (sut,suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.

Amirlikning deyarli barcha hududlarida yogʻoch oʻymakorligi yaxshi rivojlangan. Shaharlarda mohir duradgorlar koʻp boʻlgan. Amirlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor extiyojlarini ta’inlabgina qolmasdan koʻp hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Buxoro amirligi hukumdorlari va aholisi savdo-sotiq ishlariga katta e’tibor qaratishgan. Amirlikda hunarmandchilik va undagi ishlab chiqarishning tarqqiy etishi doimiy savdo-sotiq munosabatlarining yanada kengayishiga asos boʻlgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining koʻpgina shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e’tibor qaratilib, bu holat savdo munosabatlari rivojini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan edi.

Amirlikning yirik shaharlari – Buxoro, Samarqand, Termiz, Shahrisab, Qarshi,

Kattaqoʻrgʻon, Dehnov, Nurota va boshqalar asosiy savdo markazlari edi. Manbalarga koʻra, XIX asr boshlariga kelib yirik karvon yoʻllari chorrahasida joylashgan Qarshi shahrining ahamiyati oshib ketadi. Ichki bozorlarda avvalo kundalik ehtiyoj mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta boʻlgan. Ichki savdoning taraqqiyotida yirik shaharlarning atroflardagi qishloqlar bilan iqtisodiy munosabatlari hamda shaharlararo savdo-sotiq aloqalarining rivojlanganligi muhim oʻrin tutgan. Chunonchi, amirlikdagi bozorlar nafaqat shaharlar, balki ularning atrofidagi qishloqlar aholisining talablarini qondirishda ham alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi ichki savdoning davlat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan dalolat beradi.

Ichki savdoning taraqqiy etishida amirlikda mavjud boʻlgan pul muomalasining oʻrni katta edi. Xususan, mangʻitlar hukmronligi davrida

bu sohada birmuncha barqarorlik oʻrnatilgan boʻlib, muomalada asosan uch turdagi – tillo, tanga (kumush) va pul (mis) mavjud edi. Shahar hamda qishloqlardagi savdo-sotiq va toʻlovlarda asosan tanga va pul ishlatilgan.

Buxoro amirligida qoʻshni davlatlar va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga katta eʼtibor berilgan. Tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qoʻqon xonlari, qozoq va turkman dashtlari, Afgʻoniston, Eron, Hindiston, Qashgʻar va ayniqsa Rossiya bilan boʻlgan savdo munosabatlari ayniqsa muhim oʻrin tutgan edi.

Koʻchmanchi qozoqlar amirlik bozorlariga palaslar, namatlar, jun, teri, goʻsht va sut mahsulotlari keltirgan boʻlsalar, dehqonlar va hunarmandlar qozoq dashtarini oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavotlar, kundalik ehtiyoj mollari, kiyim-kechaklar, paxta matoolari bilan taʼminlaganlar. Amirlikda turkman gilamlari va otlariga talab katta boʻlgan. Turkmanlar amirlik bozorlaridan boshqa

mahsulotlar bilan birga koʻproq har xil matolar xarid qilganlar.

XVIII asr oxiri- XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan Orenburg va Astraxon) muhim oʻrin tuta boshladi. Rossiyaga qishloq xoʻjalik mahsulotlari – teri, qorakoʻl teri, jun, paxta, ipak tolalar, turli matolar olib chiqilgan. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari,choʻyan,mis, qoʻrgʻoshin keltrilgan.

Buxoro savdogarlari Balx va Badaxshonga savdo karvonlari bilan qatnab turganlar. Bu hududlarga amirlikdan qozonlar Buxoro matolari, Rossiyadan keltirilgan igna, oyna, qaychi kabilar olib kelingan hamda Buxoroga kumush, oltin olib qaytilgan.

Savdo karvonlari Qobul va Hindistonga ham borib savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan. Hindistondan qimmatbaho toshlar,dori-

darmonlar, xushboʻy giyohlar, kashmir matolari keltirilgan. Oʻz navbatida hind savdogarlari Buxoro bozorlaridan Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar, mahalliy matolar,zarbof toʻnlar, qorabayir otlarni xarid qilganlar. Amirlik savdogarlari Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan ham savdo-sotiq aloqalari olib borgan. Xitoy bilan savdo aloqalari Qoʻqon xonligi orqali olib borilgan boʻlib, Xitoyga paxta, qorakoʻl teri, turli xil hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berilgan. Oʻz navbatida Xitoydan koʻplab ipak matolari va chinni buyumlar keltirilgan.

XIX asr boshlarida boshlangan va uning 40-50 yillaridan boshlab jiddiy ravishda kuchaygan Rossiya va Angliyaning Oʻrta Osiyo, jumladan, Buxoroga nisbatan qiziqishi, amirlik iqtisodiy hayotiga ularning kirib kelishi, oʻz navbatida Buxoro amirligida ishlab chiqarish munosabatlarining jadal surʼatlar bilan oʻsishi hamda ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlar, savdogarlar, umuman ishlab chiqarish bilan bogʻliq barcha tarmoq egalari ishlab chiqarishga boʻlgan

munosabatlarini oʻzgartirdilar. Manbalar tili bilan aytganda, “Oʻrta Osiyo xom ashyosi va uning baʼzi bir mahsulotlariga talab kuchaya boshladi. Bundan ragʻbatlangan mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari imkoniyatlari boricha oʻz jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar”.

Buning natijasi oʻlaroq, XIX asr oʻrtalariga kelib, talabdan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishi tufayli buxorlik savdogarlar tashqi savdo aloqalarini kuchaytirdilar. Xususan, buxorolik savdogarlar Rossiyaga koʻproq paxta va ipak gazlama mahsulotlarini olib borib, Rossiyadan temir va mis keltira boshladilar. Hunarmandchilik mahsulotlari koʻplab Hindiston, Eron va Xitoyga chiqarilib, bu hududlardan asosan qimmatbaho metallar keltirilgan.

Soliqlar.Buxoro amirligida eng asosiy soliq bu yerdan olinadigan xiroj soligʻi edi. Bu soliq amlokdor va oqsoqollar ishtirokida hosil pishib yetilgan paytda hosilga qarab

belgilangan. Hajmi esa hosilning uchdan, to‘rtdan ayrim hollarda beshdan bir qismi ko‘rinishida bo‘lgan. Dehqonlar amlokdor uchun o‘n botmon yerdan yarim pud kafsan solig‘ini, dorug‘alar uchun kafsani dorug‘a(hosilning kam hajmdagi ma’lum qismi) ham to‘laganlar. Undan tashqari amir dalalarni aylanganda, harbiy harajatlar paytida ham qo‘shimcha soliq va to‘lovlar olingan.

Qonuniy yer solig‘idan tashqari yer egalari har bir tanob bog‘ yoki tomorqadan maxsus tanob puli va yem-xashak yetishtiradigan yerlardan alaf puli olingan. Ular umumiy nomda tanobona deb ham yuritilgan. Bu soliqlar yerlarning bozor joylashgan joyga uzoq yaqinligiga qarab hajm jithatdan farq qilgan. Amir Nasrullo davrida amirlikning soliq tizimiga biroz o‘zgartirishlar kiritiladi. Ya’ni, poliz ekinlari ekiladigan yerlar uchun qo‘sh puli joriy etilgan. Keyinchalik bu soliq poliz ekinlari ekmaydigan boshqa yerlaridan ham olinadigan bo‘lgan.

Amirlikdagi yana muhim soliqlardan biri – zakot edi. Zakot davlatning mol-mulkidan oladigan solig‘i bo‘lib, mol-mulk narxining qirkdan bir hajmida undirilgan. Bu soliqning eng daromadli tomoni mahsulotlarga soliq solish, shuningdek, savdogarlarning mahsulot uchun olib kelgan pullariga soliq solish bo‘lgan. Zakot mahsulotlardan bir necha marta undirib olingan. Chorvachilik tumanlarida zakot mahsulot ko‘rinishida (beshta tuyadan bitta quy yoki echiki, qirqta quydan bitta quy yoki echki kabi) undirilgan.

Urushlar davrida favqulodda soliq – jul undirilgan. Undan tashqari savdo-sotiqdan dalloli, boshqa viloyatlar va davlatlardan olib o‘tilayotgan mahsulotlar uchun boj, daryodan mahsulotni qayiqda olib o‘tgani uchun suv puli, bozordagi savdo joyi uchun puli taxtajoy, bir juft omoch tortadigan ot yoki ho‘kiz uchun yaksara (bir botmon g‘alla), omoch tortadigan bitta ot yoki ho‘kiz uchun nimsara (yarim botmon g‘alla) kabi soliqlar olingan. Yangi ariqlar va kanallar qazish eskilarini tozalash uchun mahalliy aholi hasharlarga jalb etilgan. Ommaviy jamoat

ishlariga ishtirok etmaganlardan shariatga koʻra, boqipuli deb atalauvchi jarima olingan. Soliqlar, toʻlovlar va jarimalar pul va mahsulot koʻrinishida, mahalliy soliq yigʻuvchilar hamda amir tayinlagan kishilar tomonidan yigʻib olingan.

Amirlikdagi madaniy hayot. XVIII asrning oxirlariga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham taʼsir etmasdan qolmadi. Ayniqsa,ilgarigi davrlarda shakllangan maktab va oliy taʼlim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaladi. Boshlangʻich taʼlim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida iavjud boʻlib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, qurʼonning dastlabki oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan.

Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. Madrasalarda oʻqitish igarigi davrlarda boʻlganidek uch boqichda, 1) past

qadam, 2) miyona (oʻrta) qadam va 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan. Madrasa oʻqituvchilari-mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari, talabalar nafaqalari, kutubxona xarajatlari, taʼmirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablagʻlar vaqf yerlaridan keladigan foyda hisobidan qoplangan. Madrasalar odatda hukmdorlar, amaldorlar, nufuzli shaxslar, yirik din peshvolari va savdogarlar tomonidan koʻp hollarda pishiq gʻishtdan ikki qavatli qilib qurilgan. Ularning birinchi qavatida machit,qiroatxona va kutubonalar, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar joylagan.

Madrasa talabalari diniy bilim boʻlgan Qurʼoni Karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, xandasa(matematika) kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham taʼlim olganlar. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy taʼlimga asosiy eʼtibor qaratilib, dunyoviy taʼlim berish nisbatan orqada qolgan edi.

Bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan me’morchilik yodgorliklari hamda yozma manbalar amirlikda adabiyot, tarix, xattotlik va musiqa san’ati, me’morchilik rivojlanganligidan dalolat beradi.Demak, Amir Haydar saroyida munshi (amir kotibi) lavozimida xizmat qilgan Mirzo Sodiq Munshiy XIX asr boshlaridagi adabiy muhitning ko‘zga ko‘rigan namoyondalaridan biri edi. Undan meros qolgan she’riy Devon – “Devoni Sodiq Munshiy” hamda she’riy usulda bitilgan tarixiy asari uning adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi.Bu davrda amirlikning turli shaharlarida yashab ijod ilgan ko‘plab shoirlar (shoir Hoziq, shoir Mujrim va bosh.) ijodida xalqparvarlik, jabr-zulmga qarshi isyonkorlik kayfiyati kuchli bo‘lib, ular ko‘p hollarda hukmdorlar va amaldorlar tomonidan quvg‘inga olingan. XIX asr adabaiyotida Shavqiy taxallusi bilan she’rlar yozgan kattaqo‘rg‘onlik Muhammad Sharif, “Chor darvish”, “Mafiloro”, “To‘tinoma” kabi asarlar muallifi Mulla Qurbon Xiromiy va boshqalar katta rol o‘ynaganlar. Shuningdek, bu davrda Ahmad

Donish, Ochili Murod Miriy Katta Qoʻrgʻoniylar ham adabiyotga xos boʻlgan asarlar yaratganlar.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarning koʻpchiligi hukmron mangʻitlar sulolasi tarixiga bagʻishlangan boʻlib, ularda oʻrta asrlar tarixnavisligidagi anʼanalar davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab oʻtgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati koʻp qirrali boʻlib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratganlar. Xususan, Mullo Ibodullaning "Tarixi amir Haydar", Muhammad Sharifning "Dostoni amironi mangʻit", Mir Olim Buxoriyning "Fathnomai sultoniy", Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mangʻitiya", "Dahmai shohon", Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining "Toju tavorih", Ahmad Donishning "Mangʻitlar xonadoni hukumdorlari tarixidan qisqacha risola", Mirzo Sodiq Munshiyning "Mangʻit hukmdorlari tarixi" kabilar shular jumlasidandir.

Amirlikning madaniy hayotida hattotlik ham muhim oʻrin egallagan edi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda hattotlik matablari mavjud edi. Oʻz kasbining ustasi boʻlgan mohir hattotlar davlat va xoʻjalik hujjatlari tayyorlashda, ilmiy-badiiy asarlar yozish va koʻchirishda meʼmoriy inshootlarga turli yozuvlar (Qurʼoni karim oyatlari, hadislar, hikmatlar)ni chiroyli naqshlar tarzida bitishda mashhur boʻlganlar.

Bu davrda amirlikning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Gʻuzor, Katta qoʻrgʻon, Dehnov kabi koʻplab shaharlarida masjid va madrasalar bunyod etilgan. Buxorodagi Domullo Tursunjon madrasasi, Xudoydod meʼmoriy(masjid,madrasa va sardoba) majmuasi,Ernazar elchi madrasasi, Qarshidagi Ali va Mir Muhammad madrasalari shular jumlasidandir. Undan tashqari bu davrda shaharlarda koʻplab ixtisoslashgan yopiq bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar, yoʻllar boʻylarida sardobalar bunyod etilgan.

Xullas, Oʻzbekiston davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi davlatining ham oʻz oʻrni va mavqyei boʻlib, mangʻitlar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar boʻlib oʻtdi. Ammo, mamlakat iqtisodiy jihatdan qudratli va siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Koʻp hollardagi iqtisodiy tanglik, siyosiy beqarorlik, oʻzaro nizolar XIX asrning ikkinchi yarmida davlatning katta hududlarini Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab boʻldi. Buxoro amirlari 1920 yilga qadar Rossiyaga vassal holatda taxtni egallab turdilar.

Buxoro amirligidagi mangʻitlar sulolasi hukmdorlari (1747-1920 yy.)

1. **Muhammad Rahimbiy – 1747-1758 yy.**

2. Doniyolbiy – 1758-1785 yy.
3. Amir Shohmurod – 1785-1800 yy.
4. Amir Haydar – 1800-1826 yy.
5. Amir Husay – 1826 y. Ikki yarim oy.
6. Amir Umar – 1826 y. To‘rt oy.
7. Amir Nasrullo – 1826-1860 yy.
8. Amir Muzaffar – 1860-1885 yy.
9. Amir Abdullahad – 1885-1910 yy.
10. Amir Olimxon – 1911-1920 yy.



Buxoroda yongʻin. Qizil armiya hujumi oqibati (aeroplanda olingan surat)

Bohodir Eshov,«Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi»,Toshkent-2012Suratlar «Tadjikistan v kartinkax» saytidan olindi.